

11-mavzu: [i] tovushi. li harfi

Dars maqsadi:

- [i] tovushining talaffuzi va li harfining bosma shakli bilan tanishadilar ;
- [i] unli tovush ekanligini bilib oladilar.
- so'zlardan [i] tovushining o'rnini aniqlashni o'rganadilar;
- so'zni bo'g'inga bo'lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so'zlar: topishmoq, [i] tovushi,

Didaktik materiallar: ko'k va qizil rangli kichik kvadratlar, rasmlı kartochkalar, kesma harflar.

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Diqqat mashqi: O'qituvchi doskaga kesma harflar yordamida *ot, non, ota, ana* so'zlarini yozadi. O'quvchilar bu so'zlarni ko'rib olishlari uchun 1 daqiqa vaqt beradi. So'ng bu so'zlarni o'zgartiradi. *On, non, ona, ana*. O'quvchilardan qaysi so'zlar o'zgarganini so'raydi?

- Bugun siz bilan "Diqqat" mashqini o'tkazamiz. Men doskada yozilgan so'zlarni 1 daqiqa davomida qanday yozilganini eslab qoling. Endi esa o'zgargan so'zlarni toping.

Asosiy qism (40 daqiqa)

1. Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

O'qituvchi doskaga *ot* va *it* rasmini qo'yadi. O'quvchilardan bu rasmlarni ifodalovchi so'zlarda qanday tovush o'zgarganini topishni aytadi. O'quvchilar qanday tovush o'zgargan bo'lsa shu tovushni ifodalovchi harfni kesma harflaridan olib ko'rsatadi.

Doskadagi rasmlarga diqqat bilan qarang bu soʻzlarni aytganda qanday tovush oʻzgarganini aniqlang.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- *Rasmlarni ifodalovchi soʻzlarni ayting.*
- *Birinchi soʻzda qanday tovush oʻzgardi?*
- *[o] tovushi oʻrniga qanday tovush qoʻydingiz?*

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi

2. Mavzuni tushuntirish: (10 daqiqa)

Oʻqituvchi [i] tovushini qanday hosil boʻlishini tushuntiradi. Unli tovushlar toʻsiqqa uchramasligi, choʻziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini (qizil kvadrat shaklni koʻrsatiladi) aytiladi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

Oʻqituvchi uchun eslatma:

[i] tovushini talaffuzida lablar jilmaygan holatdagidek, tishlar bir-biriga yaqinlashgan, lekin birlashmagan, oldingi tishlar orasi ochiq, tilning keng uchi pastki tish qirralariga, tilning yon qirralari esa yuqorigi katta tishlarga tegib turgan, til kuragi qattiq tanglayga koʻtarilgan, yumshoq tanglay tomoqning orqa devoriga siqilgan burun yoʻllarini yopib turgan, havo oqimi ogʻiz orqali oʻtib ketadigan holatda boʻladi, tovush boylamlari esa birikkan boʻlib, tebranadi va tovush hosil qiladi.



Ii harfining bosma ko‘rinishi bilan tanishtiriladi. Harflarning uch xususiyati: yozilishi, ko‘rish mumkinligi va ularni o‘qish mumkinligi aytiladi. Xulosada harflar o‘qilishi, yozilishi va ularni ko‘rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytiladi.

Darslikda berilgan she‘r o‘qib beriladi yoki o‘qishni biladigan o‘quvchilarga o‘qitiladi. She‘r mazmuni bo‘yicha suhbatlashadilar.


- *She‘r nima haqida?*
- *Unda qaysi so‘zlarda [i] tovushi ishtirok etadi?*
- *She‘rda i harfi haqida nima deyilgan?*
- *Siz yana qanday [i] tovushi bilab qatnashgan so‘zlarni bilasiz?*

Darslik bilan ishlash: (10 daqiqa)

1. *Berilgan harf, bo‘g‘in va so‘zlarni ketma-ket o‘qing.*
2. *Rasmni ifodalovchi so‘zlardan [i] tovushinig o‘rnini toping.*
3. *Topishmoqni o‘qing va javobini toping.*
4. *Topishmoq javobini topishda sizga qanday so‘zlar yordam berganini ayting.*

Daftar bilan ishlash: (10 daqiqa)

1. *Ii harfini tegishli rangga bo'yang. Nega shu rangni tanlaganingizni ayting.*
2. *Ip va nina so'zlarining chizmasidan i harfining o'rnini aniqlang va tegishli katakni bo'yang.*



3. *Berilgan namunadan bosma Ii harfining bosh va kichik ko'rinishini avval nuqtalar ustidan so'ng mustaqil yozing.*

2. *Nomlari katakda berilgan so'zlarga mos rasmlarni bo'yang. (O'quvchilar it, ot, in rasmlarini bo'yashi kerak)*

Darsga yakun yasash:

- *Qanday tovush bilan tanishdingiz?*
- *Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?*

12-mavzu: [i] tovushi. Ii harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar

Dars maqsadi:

- [i] tovushining talaffuzi va Ii harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;
- so'zlardan [i] tovushining o'rnini aniqlashni o'rganadilar;
- so'zni bo'g'inga bo'lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so'zlar: mos so'zni topish, so'zdan so'z topish [i] tovushi ishtirokidagi so'zlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

Didaktik materiallar: ko'k va qizil rangli kichik kvadratlar, rasmlar, kartochkalar, kesma harflar, "Ikki do'st" audio ertak.

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Gap tuzamiz mashqi: O'qituvchi doskaga 2 ta rasm qo'yadi. Shu rasmlarni ifodalovchi so'zlarni bir biriga bog'lab gap tuzishni so'raydi.